

**XALQ DEPUTATLARI
BERUNIY TUMAN
KENGASHINING
QARORI**



**XALÍQ DEPUTATLARI
BERUNIY RAYONLIQ
KENESINIŇ
QARARI**

2023 - yil 18 - yanvar

VI-60-5-13-182-K/23

Beruniy tuman hokimligi

Tumanda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish va hududlarni ixtisoslashtirgan holda dehqon xo'jaliklarini tashkil etish maqsadida tuman hokimligi zahira yer fondi hisobidagi yerlarni ochiq elektron tanlovga chiqarish loyihalarini ko'rib chiqish yuzasidan berilgan takliflarni muhokama etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-sentyabrdagi "Dehqon xo'jaliklari tashkil etishni qo'llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-373-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tuman hokimligi zahira yerlari hisobidagi ekin yer maydonlarida dehqon xo'jaliklarini tashkil etish uchun "E-AUKSION" elektron savdo maydonchasiga chiqarish yuzasidan tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i v.v.b B.Abdullayevning taklifini tinglab muhokama qilib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asoslanib Xalq deputatlari Beruniy tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-sentyabrdagi "Dehqon xo'jaliklari tashkil etishni qo'llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-373-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Tuman hokimligi zahira yerlari hisobidagi ekin yer maydonlarida yangidan dehqon xo'jaliklarini tashkil etish uchun "E-AUKSION" elektron savdo maydonchasiga chiqarish bo'yicha ishlab chiqilgan loyihalar yuzasidan tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i v.v.b B.Abdullayevning taklifi ma'lumot uchun qabul qilinsin va ishlab chiqilgan loyihalar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Beruniy tumani hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari (T.Tangirbergenov), tuman qishloq xo'jaligi bo'limi (B.Abdullayev), Kadastrlar palatasi tuman filiali (S.Muxanov) va xo'jalik rahbarlariga:

- Joriy yilda "dehqon xo'jaligi" tashkil etish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarilishi belgilangan 640 gektar yer maydonini bir hafta muddatda belgilangan tartibda tuman hokimligi zahira yerlari hisobiga qaytarish choralarni ko'rish hamda ochiq elektron tanlovga chiqarish bo'yicha loyihalarni tayyorlash;

Bunda, qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan ixtiyoriy ravishda yer maydonlarini zahiraga qaytarish bo'yicha bergan arizalariga asosan yer ijara shartnomalariga belgilangan tartibda o'zgartirish kiritish yoki bekor qilinishiga doir hujjatlarni hokimlikga taqdim qilish hamda zahiraga qaytarib olinayotgan yer maydonlarini konturlar kesimida hisob-kitob qilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga ko'rib chiqish uchun yuborish;

- Zahiraga qaytarilgan yer maydonlarini "dehqon xo'jaligi" tashkil etgan holda sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va kartoshka ekinlarini yetishtirish kabi loyihalarni amalga oshirish uchun birinchi navbatda "Temir daftar", "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" hamda ish bilan band bo'lmagan fuqarolarga 0,30 gektardan 2,0 gektargacha bo'lgan o'lchamlarda ochiq elektron tanlov orqali 30 yilga ijaraga ajratib berish ishlarini belgilangan tartibda tashkillashtirish;

- Hududlardan ochiq elektron tanlov asosida ajratiladigan yer maydonlarining tuproq sharoiti, yer ball boniteti, suv bilan ta'minlanganlik darajasi, hudud aholisining tajribasidan kelib chiqqan holda ixtisoslashtirish ya'ni "Bir hudud - bir mahsulot" tamoyili asosida mahsulot yetishtirishga asosiy e'tibor qaratish topshirilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashining "Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya bo'yicha doimiy komissiya"si raisi (I.Atabayev) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror tuman "Xalq minbari" gazetasida nashr qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



A.Saparbayev

Xalq deputatlari Beruniy tuman
Kengashining
2023 yil 18 yanvardagi
VI-60-5-13-182-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumanida Dexqon xo‘jaliklariga yer uchastkalarini ijaraga berish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarish bo‘yicha maqullangan

LOYIHALAR

T/r	OFY (massiv) nomi	Yo‘nalishi (sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va kartoshka ekinlari)	Kontur raqami	Umumiy maydoni, ga	shundan:	Ekin maydonga talabgorlar soni (loyihalar soni)	Talabgorning o‘rtacha maydoni
					Ekin maydoni, ga		
1	Ozod OFY	Polizchilik	1520,1521	3,5	3,5	2	1,75
2	Ozod OFY	Polizchilik	1524,1525	3,7	3,7	2	1,85
3	Ozod OFY	Polizchilik	1512,1513,1514	3,7	3,7	2	1,83
4	Ozod OFY	Polizchilik	1516	1,3	1,3	1	1,25
5	Maxtunkuli OFY	Moyli ekin	401	3,1	3,1	2	1,55
6	Maxtunkuli OFY	Moyli ekin	347	1,5	1,5	1	1,50
7	Maxtunkuli OFY	Moyli ekin	1054k	0,3	0,3	1	0,32
8	Tinchlik OFY	Moyli ekin	166	1,0	1,0	1	1,00
9	Tinchlik OFY	Moyli ekin	173	2,4	2,4	2	1,22
10	Tinchlik OFY	Moyli ekin	1509	0,8	0,8	1	0,80
11	Navoiy OFY	Dukkakli	708	3,0	3,0	2	1,50
12	Navoiy OFY	Dukkakli	880	1,2	1,2	1	1,19
13	Navoiy OFY	Dukkakli	881	2,0	2,0	1	2,00
14	Shabboz OFY	Sabzavotchilik	945	5,3	5,3	5	1,06
15	Shimom OFY	Sabzavotchilik	465k	0,3	0,3	1	0,30
16	Do‘stlik OFY	Polizchilik	1070	1,0	1,0	1	0,97
17	Abay OFY	Polizchilik	2117	0,8	0,8	1	0,80
18	Abay OFY	Polizchilik	2036k	1,8	1,8	1	1,80
19	Beruniy OFY	Kartoshkachilik	141	1,9	1,9	1	1,90
20	Tinchlik OFY	Moyli ekin	924,925	6,5	6,5	4	1,63
	Jami tuman:			45,0	45,0	33	1,36

IZOH: Issiqxona tarmog‘i keng rivojlangan tumanlarda dehqon ho‘jaliklariga ajratib berilgan ekin maydonlarida isitish tizimlarini o‘rnatmagan holda engil konstruksiyali issiqxonalar qurilishiga ruxsat beriladi.